

Barg izlari yordamida kuzgi o'rmon rasmini chizish



Kuzda tabiat **yorqin** va **rang-barang** tuslarga burkanadi.



Keling, kuzgi o'rmon rasmini **barg izlari** yordamida chizamiz.



Biz kuzda barglar rangining o'zgarishini kuzatamiz. Ular **sariq**, **olovrang**, **qizil**, **jigarrang** kabi tuslarga kiradi. Agar barglar yuzasiga bo'yoq surtib, qog'ozga bossak, juda chiroyli **izlar** hosil bo'ladi. Bunday izlardan **daraxtlar**, **o'rmon** va **kuz manzarasini** yaratish mumkin.



Bugun siz **barg izlari** yordamida **kuz manzarasini** tasvirlash va iliq ranglardan foydalanishni o'rganasiz.



Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, turli shakldagi daraxt barglari, bo'yoqlar, mo'yqalamlar, suv.



Barg izlari **daraxt shakllarini** tez va chiroyli hosil qilishga yordam beradi.



Turli shakldagi barglardan foydalanish mumkin, shunda rasm **rang-barang** va **jonli** chiqadi.



Rasm chizish bosqichlari:

1. Har xil daraxtlardan **kichikroq barglar uzib oling**.
2. Barglarning orqa (tomirlari bo'rtib turgan) tomoniga **bo'yoq surting**.
3. **Barglarni qog'ozga ehtiyotkorlik bilan qo'ying** va bosing, shunda qog'ozda **barg izlari** qoladi. Ularni shunday joylashtiringki, **daraxtlarning uchlari, shox-shabballari** hosil bo'lsin.
4. Mo'yqalam bilan **daraxt tanasi** va **shoxlarini** chizing. Osmonda quyosh, qushlar, yerda o'tlar va to'kilgan barglarni qo'shing.

1



2



3



4

